

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60810400 – Agronomiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “25” iyun dagi 218 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	6
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	7
	Bibliografik ma’lumotlar	11
	Kelishuv varag‘i.....	12

1. Umumiy tavsifi

60810400 – Agronomiya ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo’llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi.

Malaka talablari 60810400 – Agronomiya ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va o’quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o’qituvchilari;

ta’lim yo’nalishining o’quv rejasi va o’quv dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Qishloq xo’jaligi mahsulotlarini yetishtirishda yer, suv, energiya, moddiy-texnika va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, resurstejamkor texnologiyalarni qo’llash, qishloq xo’jaligida ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, qishloq xo’jaligi ekinlari hosildorligi va mahsulot sifatini oshirishda agrotadbirlar bajarilishini nazorat qilish va baholash bilan bog’liq sohalarni o’z ichiga oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

Yer, suv, moddiy-texnika va mehnat resurslari, dala ekinlari va ularning navlari, urug’lari, mahsulotlari;

kimyoviy va biologik vositalar, texnik asbob-uskunalar, qishloq xo’jalik texnikalari, agrotexnik tadbirlar;

dehqonchilikda qo’llaniladigan agrotexnik jarayonlar, dala ekinlarini yetishtirish texnologiyasi;

qishloq xo’jalik ekinlarini yetishtirish bo’yicha texnologik xaritalarni tuzish; ilmiy-tadqiqot jarayonlari;

agrosanoat korxonalarini, tashkilotlar, agroklastlar, kooperatsiyalar, fermer xo’jaliklarining boshqaruv tizimlari va jarayonlari.

60810400 – Agronomiya bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o’tgan taqdirda, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o’qitish bo’yicha pedagogik faoliyati bilan shug’ullanish huquqiga ega bo’ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish faoliyati;*
- *loyiha-texnologik faoliyat.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60810400–Agronomiya ta’lim yo’nalishi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo’lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;

agronomiya sohalari bo’yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

dala tajribalarida variantlar va takrorlanishlarni joylashtirish, kuzatuvlar o’tkazish, ilmiy ish hisoboti uchun ma’lumotlar tayyorlash;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etishda va hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

berilgan mavzu bo’yicha axborotlarni to’plash, ishlov berish, tahlil qilish va tizimlashtirishda ishtirok etish;

qaror qabul qilish, bilimlarni amaliyotda qo’llash, ish samaradorligi va sifatiga javob berish;

respublika va xorijda dala ekinlarini yetishtirishga oid chop etilgan ilmiy-texnik axborotlar manbalarini o’rganish;

ilmiy tadqiqot natijalari va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida qo'llanilayotgan zamonaviy agrotexnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;

ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;

boshqaruv qarorini qabul qilish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida ishlab chiqarish jarayonlari monitoringini yuritish;

kasbiy muammolar yechimini topish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;

birlamchi ishlab chiqarish ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

kasbiy faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

dala ekinlari yetishtirish va hosilini yig'ishtirishda texnologik kartalardan foydalanish;

dehqonchilikda yerlarni meliorativ holatini yaxshilash tadbirlarini qo'llash;

dehqonchilikda samarali va resurs tejankor faoliyatni tashkil eta olish;

dala ekinlarini yetishtirish va hosilini yig'ib olish bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlari, agrotexnik tadbirlarning bajarilishi sifatini nazorat qilish;

zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;

ilg'or texnologik jarayonlardan foydalanish;

ekinlar yetishtirishning ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiya qilish;

yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan oqilona foydalanish;

tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;

xizmat ko'rsatish sohasida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olish;

qishloq xo'jaligi sohasi uchun servis xizmati ko'rsata olish.

Loyiha-texnologik faoliyatida:

qishloq xo‘jalik ekin maydonlarini tashkil etishni loyihalashtirish uchun zaruriy boshlang‘ich materiallar to‘plash;

dala ekinlari yetishtiriladigan yerlardan foydalanish loyihasini ishlab chiqish, biologik materiallarni va zaruriy ishlab chiqarish resurslarini tayyorlash, ekinlarini almashlab ekish sxemalarini tuzish;

dala ekinlari yetishtirish texnologik kartasining agrotexnika qismini ishlab chiqish;

ixtisoslikdan kelib chiqan holda mahsulotlar sifatini baholashda chet el va vatanimizda qo‘llanilayotgan usullarni amalda qo‘llay olish;

loyihalashtirishda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalana olish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.

kasbiy faoliyatda tabiiy-ilmiy va mutaxassislik fanlarining asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo‘llay olishi;

og‘zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va me’yorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g‘oya, taklif, ta’rif va xulosalarni mantiqiy, to‘g‘ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, malaka oshirish va o‘z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o‘zgartirishga qodir bo‘lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi;

axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishni;

dala ekinlarini yetishtirish uchun eng yuqori va sifatli mahsulot beradigan o‘simlik turlarini, navlarini tanlay olish, tuproq-iqlim sharoiti va dala ekinlarining biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ekinlarni ratsional joylashtirish;

tuproqning suv, havo, issiqlik va oziq rejimlarini boshqarish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirib borish;

dala ekinlarini yetishtirishda almashlab ekishni ilmiy asosda olib borish, ishlab chiqarish sharoitida ekinlarni yetishtirishning samarali usullarini tanlash va tashkil etish;

mo‘l va sifatli mahsulot beradigan ekinlarni yetishtirish hamda hosilini yig‘ishtirishning texnologik xaritasini tuzish;

dala ekinlarining urug‘i va ko‘chatlarini yetishtirish, ekinlarni yetishtirishda innovatsion, resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llash;

yetishtirilgan dala ekinlari hosilini yig‘ishtirish va unga dastlabki ishlov berish; ekologik toza mahsulot yetishtirish talablarini bilish va amalda qo‘llay olish, organik dehqonchilik tizimida mahsulot yetishtirishni tashkil etish;

global iqlim o‘zgarishi sharoitida, shuningdek respublikaning turli noqulay iqlim sharoitlari uchun ekinlarni yetishtirishda mos agrotexnologiya elementlarini qo‘llash;

yem-xashak o‘tlar, ozuqabop cho‘l o‘simliklarini ko‘paytirish va yetishtirish, tabiiy yaylovlardan oqilona foydalanish, madaniy yaylovlar barpo etish;

sug‘oriladigan yerlar degradatsiyasining oldini olish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda ilmiy agronomiya qoidalariga rioya qilish, kerakli chora-tadbirlarni qo‘llash;

dala ekinlarini yetishtirish uchun talab etiladigan ishchi kuchi, texnika vositalari, o‘g‘itlar, urug‘lar, ekiladigan materiallar, qadoqlash idishlari va boshqa materiallarni hisoblay bilish, ulardan foydalanish samaradorligini hisoblash va baholash;

dala ekinlarini yetishtirishda texnika va texnologiyalarni tatbiq qilishda namunaviy metodikalardan va texnik vositalardan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari va agrotadbirlarni rejalashtirish, ularni bajarilishining sifatini nazorat qilish va baholash;

kasbiy faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash,

dala ekinlarining tavsiya etilayotgan yangi turlari, navlari va ularni yetishtirishning agrotexnik usullarini ishlab chiqarishga tatbiq etish;

ishlab chiqarishda muammolarning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish hamda ular takrorlanishining oldini olish choralarini ishlab chiqish uchun mijozlar, ichki bo‘limlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot qilish;

mahsulot sifatini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo’nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. O‘quv tanishuv amaliyoti;

2. Ishlab chiqarish amaliyoti;

3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	5040	168	
1.01	O'EYTB1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	DINB1204	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	FALB1504	Falsafa	120	4	5
1.04	XJTNB1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	O'T O'SQB1204	O'zbek (rus) tili. O'zbek tilini sohada qo'llash	120	4	2
1.06	JMSB1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.07	ENMTB1204	Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika	120	4	2
1.08	ANFKBKB1104	Analitik, fizkolooid va biorganik kimyo	120	4	1
1.09	BO'FZB1108	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi	240	8	1,2
1.10	QXAKTB1204	Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar	120	4	2
1.11	QXMB1106	Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish	180	6	1
1.12	AGRAB1104	Agronomiya asoslari	120	4	1
1.13	BIOB1204	Biologiya	120	4	2
1.14	TPAKB1308	Tuproqshunoslik va agrokimyo	240	8	3,4
1.15	DEHB1310	Dehqonchilik	300	10	3,4
1.16	MELYTB1310	Meliorsiya va yer tuzish	300	10	3,4
1.17	MEVSABB1308	Mevachilik va sabzavotchilik	240	8	3,4
1.18	QXEGSUB1508	Qishloq xo'jalik ekinlari genetikasi, seleksiyasi va urug'chiligi	240	8	3,4
1.19	QXBTMB1506	Qishloq xo'jalik biotexnologiyasi va mikrobiologiya	180	6	5
1.20	O'HQB1508	O'simliklarni himoya qilish	240	8	5,6
1.21	ESSTB1510	Ekinlarni sug'orish va sug'orish tizimlari	300	10	5,6
1.22	O'SHB1414	O'simlikshunoslik-1,2	420	14	4,5,6
1.23	PAXTEB1606	Paxtachilik	180	6	6
1.24	YEXYEOTB1706	Yem-xashak yetishtirish va ozuqa tayyorlash	180	6	7
1.25	DEYITB1704	Dala ekinlarini yetishtirishda innovatsion texnologiyalar	120	4	7
1.26	QXMSSB1704	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini standartlashtirish va	120	4	7

		sertifikatlash			
1.27	QXMSQITB1704	Qishloq xo’jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi	120	4	7
2.00		Tanlov fanlar	840	28	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	840	28	3,5,6,7
	Kvalifikatsiya:	Agronom, agronom-nazoratchi, agrotexnolog			
		Jami	5880	196	
	MALAMM 1244	Malakaviy amaliyotlar	1320	44	2,4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			8
		Jami	1320	44	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma’lumotlar

UO‘K: 63+631

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta’lim yo’nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o‘quv reja va o‘quv dasturlari, profil, o‘qib-o‘rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o‘quv jarayoni, agronomiya, agrotexnik tadbirlar, ekinlarni yetishtirish, o‘simlik, tuproq-iqlim sharoiti, dala ekinlarining biologik xususiyatlari, almashlab ekish, texnologik xarita, tuproqning suv, havo, issiqlik va oziq rejimlari, o‘g‘itlar, urug‘lar, ekiladigan materiallar, qadoqlash idishlari, yer, suv, texnika va mehnat resurslari, innovatsion g‘oyalar, mustaqil ta’lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o‘quv fanlari bloki, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor S.Ya. Islamov

2024 yil « 2 » 06

M.O’:

KELISHILDI:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor M.Boltaboyev

2024 yil « 20 » 06

M.O’:

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo’jaligi vazirligi Ilm-fan, innovatsiyalar va ta’limni rivojlantirish boshqarmasi

Boshliq T.Ataqulov

2024 yil « 12 » 06

M.O’:

Andijon qishloq xo’jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Rektor T.Sultonov

2024 yil « 2 » 06

M.O’:

Paxta seleksiyasi, urug’chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor Sh.Namozov

2024 yil « 11 » 06

M.O’:

O’simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor Z.Ziyayev

2024 yil « 11 » 06

M.O’:

Toshkent viloyati Bo’ka tumani “APK BUKA” MCHJ

Direktor U.Boymurodov

2024 yil « 11 » 06

M.O’: